TARIX

UDK: 94(575.1+470):323/327(584.4) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a64**

XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O‘LKASI QISHLOQ XO‘JALIGIDA SHOLI YETISHTIRISH VA UNING AHVOLI

ВЫРАЩИВАНИЕ РИСА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ И ЕГО СОСТОЯНИЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВВ

RICE GROWING IN THE AGRICULTURE OF TURKISTAN AND ITS CONDITION IN THE SECOND HALF OF THE XIX - BEGINNING OF THE XX CENTURIES

Umidjon O‘sarov[1]

[1]Umidjon O‘sarov − O‘zbekiston milliy universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida qishloq xo‘jaligi muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan sholi yetishtirish va uning ahvoli haqida to‘xtalib o‘tilgan. Maqolada o‘lkada mahalliy aholining sholi yetishtirishdagi o‘ziga xos tajribasi va tartibi, ekin maydonlari hajmining ortishi, suv manbasining ta’minoti, sholi hosilining miqdori hamda uning ko‘payishi kabilar haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada mustamlakachi Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida sholi yetishtirilishi va sholi maydonlarining ko‘payishiga qarshi chora-tadbirlari ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается выращивание риса, являющегося одной из важнейших отраслей сельского хозяйства в Сырдарьинской, Самаркандской и Ферганской областях, Туркестанского края во второй половине XIX – начале XX веков, и его состояние. В статье приводится информация о конкретном опыте и процедуре местных жителей по выращиванию риса в стране, увеличении объема пахотных земель, снабжении источником воды, количестве урожая риса, а также его увеличении. Также в этой статье раскрываются меры против выращивания риса на Туркестанской территории колониальной Российской империи и увеличения таких пахотных земель.

Abstract

This article discusses the condition and cultivation of rice, which is one of the most important branches of agriculture in the Syrdarya, Samarkand and Fergana regions of the Turkestan in the second half of the 19th - early 20th centuries. The information on the specific experience and procedure of the locals in the cultivation of rice in the country, increasing the amount of arable land, supplying a water source, the amount of rice harvest, as well as its increase is presented in the article. Also, this article reveals measures against the cultivation of rice in the Turkestan territory of the colonial Russian Empire and the increase in such arable land.

Kalit so‘zlar: *Turkiston o‘lkasi, Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona, viloyat, uyezd, sholi, arpa-sholi, oq-sholi, qizil-sholi, ekin maydoni, yer, suv, desyatina, tonob, pud.*

Ключевые слова: *Туркестанский края, Сырдарья, Самарканд, Фергана, область, уезд, рис, ячмень, белый-рис, красный-рис, пашня, земля, вода, десятина, танаб, пудь.*

Key words: *Turkestan region, Syrdarya, Samarkand, Fergana, region, county, rice, barley, white-rice, red-rice, arable land, land, water, tithe, tanab, pud.*

KIRISH

Turkiston o‘lkasida yashagan mahalliy aholi vakillari qadimdan dehqonchilikda turli xildagi mahsulotlarni yetishtirish bo‘yicha o‘z tajribalarga ega bo‘lishgan. Ayniqsa, o‘lkaning yirik suv manbalari bo‘lgan daryolar atrofidagi yer maydonlarida sug‘orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Mahalliy aholining katta qismi qishloqlarda yashab, asosiy daromadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish orqali olinadigan hosildan bo‘lgan. O‘lka mirishkor dehqonlari qishloq xo‘jaligida ekin ekishda asrlar davomida shakllangan an’analarga tayangan holda mahsulot yetishtirilgan. Aholi o‘lkadagi sug‘oriladigan yerlarga bug‘doy, sholi, paxta, jo‘xori va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ekishgan. Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib ham aholi kundalik turmush tarzida guruch asosiy yemaklardan biri bo‘lganligi sababli, o‘lkaning suvga boy bo‘lgan hududlarida sholichilik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Sholi yetishtirish bu hudud qishloq xo‘jaligidagi donli ekinlar ichida bug‘doydan keyingi o‘rinda turuvchi mahsulot bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston o‘lkasi qishloq xo‘jaligi, xususan, o‘lkadagi sholi yetishtirishning tarixiga oid ko‘plab davr manbalari hamda statistik to‘plamlar materiallari mavjud bo‘lib, bu manbalarda o‘lkadagi sholi yetishtirishning holati va Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tizimi o‘rnatilgandan so‘ng bu sohadagi o‘zgarishlar hamda imperiya hukumatining o‘lkadagi sholichilikka oid agrar siyosati haqida ma’lumotlar olish mumkin. Jumladan, davr manbalari bo‘lgan Y.Skayler (E.Schuyler) (1876), A.I.Shaxnazarov (1908), N.N.Aleksandrovlarning (1916) asarlarida hamda M.Virskiy (1897), P.Poznyakovlarning (1907) turli yillarda berib borilgan statiktika qo‘mitasi ma’lumotnoma kitoblaridagi materiallarida o‘lkadagi sholi yetishtirish va uning ahvoli haqida ma’lumotlarga ega bo‘linadi. Shu bilan birga V.S.Batrakov (1955), Z.K.Axmadjanova (1960), I.M.Mo‘minov (1971), S.Jalilov (1977), N.U.Musayev (2008), Z.Isoqov (2011), N.Qurbonova (2014), M.R.Jabborov, R.A.Arslonzoda (2019) kabi mualliflar tomonidan chop etilgan asarlari va tadqiqot ishlarida o‘lkadagi sholi yetishtirishning holati haqida qisman bo‘lsa-da to‘xtalib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur mavzuni tadqiq etishda qiyosiy tahlil, muammoviy va miqdoriy tahlil, tizimlilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Bunda Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida mustamlakachilikka asoslangan agrar siyosati o‘lka qishloq xo‘jaligida sholi yetishtirishning ahvoli davr manbalari, ilmiy adabiyotlar va tadqiqot ishlarining tahlili asosida bayon etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turkiston o‘lkasida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholisi o‘troq yashab, qishloq xo‘jaligida yer va suv manbalaridan unumli foydalanganligi tufayli hosildorlik yaxshi bo‘lgan. O‘lka xo‘jaligi hayotida sug‘oriladigan yerlarga aholi eng muhim qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish bilan birga bog‘dorchilik va sabzavotchilik bilan ham shug‘ullangan. Mahalliy dehqonlar asosan – paxta, bug‘doy, sholi, arpa, jo‘xori, tariq va boshqa mahsulotlar yetishtirishgan[7, 12]. Bu davrda o‘lka qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida sholi yetishtirish ham boshqa boshoqli ekinlar singari yaxshi rivoj topgan.

O‘rganilayotgan davrga oid manbalarda Turkiston o‘lkasida sholi yetishtirish haqida ko‘plab ma’lumotlar qoldirilgan. Jumladan, amerikalik sayyoh Yujin Skayler asarida o‘lkada sholi o‘stirish ancha kuch-g‘ayrat va sabr-bardosh talab qilib, boshqa donli ekinlarga nisbatan suvga ko‘p ehtiyoji sababli asosan quyi balchiqli yerlarga yoki suvi juda mo‘l bo‘lgan joylarda ekiladi – deb ma’lumot berib o‘tdi[12, 230]. Shuningdek, rus agronomi A.I.Shaxnazarovning to‘plagan ma’lumotlariga ko‘ra, Turkiston o‘lkasida sholining umumiy uch turi: 1) arpa-sholi, 2) oq-sholi va 3) qizil-sholi kabilar yetishtirilgan[15, 197].

Turkiston o‘lkasi qishloq xo‘jaligida sholi yetishtirish ahvoli haqida ko‘plab davr manbalarida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, o‘lkaning Samarqand viloyatiga oid ma’lumotnoma-kitoblar materiallarida viloyatning ko‘plab hududlarida qishloq xo‘jaligida yetakchi tarmoq sifatida sholi va bug‘doy yetishtirilganligi, sholi va bug‘doy yetishtirish faqat mahalliy aholi tomonidan amalga oshirilmay, balki ko‘chirib keltirilgan rus aholisi tomonidan ham yetishtirilganligi haqida ma’lumot berilgan. Biroq ular sholi va bug‘doy ekishda yer tarkibini, iqlimni bilmasdan turib, ko‘p mablag‘ sarflab foyda ololmaganligi to‘g‘risida gap boradi[13].

XIX asr oxirlariga kelib, o‘lkadagi rasmiy amaldorlarning qishloq xo‘jaligi bo‘yicha topshirgan hisobotlarida viloyatlardagi qishloq xo‘jalik ekinlari, ularning yetishtirilishi, mintaqaviy xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarda 1891-yil Samarqand viloyati harbiy gubernatori, graf N.Y.Rostovsov raisligida tashkil etilgan alohida komissiya hisobotlarida sholi ekiladigan yerlar viloyatdagi 14 volostda 36 000 desyatina ekanligini qayd etgan. Biroq komissiya xulosasiga ko‘ra, bu ma’lumotlar haqiqatga to‘g‘ri kelmagan. Komissiya viloyatdagi sholi ekiladigan yerlarni qisqartirish, suvni tejashdan manfaatdor bo‘lganligi, paxtachilikka asosiy e’tibor qaratilishi lozimligini hisobga olgan holda sholining viloyatda qanday o‘rin egallashini Samarqand viloyatining 7 volost ma’lumotlarini taqdim qilgan[4, 87-88]. (1-jadvalga qarang).

1-jadval

1891-yil Samarqand viloyatining 7 ta volostidagi sholi va paxta ekiladigan maydonlar hajmi

Volostlar	Har yili ekin ekiladigan maydonlar	Shundan			
		Sholi ekiladigan maydonlar		Paxta ekiladigan maydonlar	
		Desyatina	Foiz (%)	Desyatina	Foiz (%)
Kabut	12.155	5.024	41.3	142	1.2
Xalvoi	9.745	4.653	47.7	120	1.2
Ishimoqsoq	6.327	3.238	5.2	210	3.2
Dahbet	5.144	1.859	36.1	100	3.2
Sirg‘ali	4.512	1.635	36.2	55	1.2
Yangiko‘rg‘on	5.586	410	7.2	677	12.1
Chelak	6.016	320	5.13	1038	17.2
JAMI	**49.486**	**17.139**	**34.06**	**2.342**	**4.7**

Bu jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, viloyatda sholi paxtaga nisbatan 8 marta ko‘p, ayniqsa, yuqoridagi 5 ta volostda yuqori o‘rinni egallagan. Xuddi shunday holat Samarqand viloyatining yana 12 ta volostida ham kuzatilgan[4, 88].Viloyatda sholi yetishtirishning keng tarqalganligi Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasiga sotishdan tashqari, sholi botqoqsimon yerlarga ham ekilganligida ham bo‘lib, bunday yerlar Samarqand viloyati ko‘p edi. Shuningdek, sholi yetishtirish ko‘p o‘g‘it talab qilmagan hamda ekin maydonlarida doimiy suv bo‘lganligi yovvoyi o‘tlarning ko‘payishiga yo‘l bermagan.

P.Poznyakov ma’lumotlariga ko‘ra, Samarqand viloyatining Samarqand va Kattaqo‘rg‘on uyezdlarida sholi ekiladigan maydonlar 1869-yildan 1892-yilgacha 254 foizga o‘sgan[10, 4-5]. Viloyat irrigatsiya bo‘limining ma’lumotlariga ko‘ra, 1891-yilda bu maydonlar 141 750 tanob yoki 35 438 desyatinani tashkil etgan[10, 5]. 1899-yilga kelib esa, sholi ekiladigan yerlar birgina Samarqand uyezdining o‘zida 36 935 desyatinani tashkil etgan[10, 9].

Samarqand viloyati statistika qo‘mitasi kotibi M.Virskiyning to‘plagan ma’lumotlarga ko‘ra esa, Samarqand uyezdida 1 desyatina yerdan 130 puddan – 320 pudgacha, Kattaqo‘rg‘on uyezdida 120 puddan – 200 pudgacha, Xo‘jand uyezdida 120 puddan – 150 pudgacha hosil olingan[10, 9]. Yuqorida keltirilgan uyezdlardagi sholi hosili bo‘yicha “Yer solig‘i” komissiyasi va rasmiy ma’lumotlarda keltirilgan raqamlar amaldagi yig‘ilgan hosildan farq qilgan. Muallifning ta’kidlashicha, bu yerda mahalliy aholi yig‘ilgan hosil miqdorini kamaytirib aytgan[10, 10]. (bu soliqni kam to‘lash maqsadida aytilgan bo‘lishi mumkin. – U.U.). Sholi maydonlarining ko‘pligi oqibatida Samarqand uyezdida bezgak kasalligining ko‘payib ketishiga ham olib kelgan[10, 46].

XX asr boshiga kelib, mustamlakachi imperiya hukumatining o‘lkada, xususan, Samarqand viloyatida ham paxtachilikka ixtisoslashtirish siyosatini jadal sur’atlarda amalga oshirilishi oqibatida sholi ekiladigan maydonlar keskin kamaya boshlagan. Masalan, birgina Samarqand uyezdi bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra, 1900-yilda sholi ekiladigan maydonlar 39 041 desyatinadan 1901-yilda 26 317 desyatinaga tushib ketgan. Bunga Zarafshon daryosi suvlarining kamayishi sabab sifatida ko‘rsatilgan[10, 5]. Chunonchi, Samarqand viloyatida sholi ekishning ko‘payib ketishi oqibatida Zarafshon vodiysida suv kamayishi holatlari sezilgan. Natijada, mustamlakachi rus ma’muriyat oldida suvni taqsimlash, ekinlarga ishlatiladigan suv miqdorini aniqlash zarurati yuzaga keldi. Bu ma’lumotlarsiz o‘lkada suvni to‘g‘ri taqsimlashning imkoni yo‘q edi. Suv tanqisligi oqibatida esa, Buxoro va uning bekliklarida, Zarafshon vodiysining bir qator yerlarida sholi ekishni kamaytirish masalalari ko‘tarila boshlandi. Bu esa mahalliy aholi orasida sholi ekiladigan yer maydonlarni tashlab ketish holatlarini kuchaytirdi, natijada loyqadan tozalanmagan ariqlar qamishlarga to‘lib ketish holatlari ham yuz bergan[10, 46].

Turkiston o‘lkasining suv manbasiga boy bo‘lgan Farg‘ona viloyatida ham bu davrda sholi yetishtirish qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan. Viloyatning sersuv tog‘oldi va tekislikka chiqish hududlarida aholi asosan, sholikorlik bilan shug‘ullangan. Sholi yetishtirish uchun Farg‘ona vodiysidagi eng qulay hudud Qo‘rshob va Qoradaryo vodiylari bo‘lgan. Shuning uchun ham bu daryolarga yaqin Jalolobod va O‘zgan hududlarida ekin maydonlarining 48 foiziga sholi

ekilgan[11, 130]. Viloyatning sersuv hududlarda, ayniqsa, Andijon va Namangan uyezdlarida sholi ko‘p ekilar edi. Bu yerda sholi ekin maydonlari ayrim yillarda 40 foizdan ko‘proqni tashkil etgan[5, 29].

Farg‘ona viloyatida yashovchi aholi sholikorlikda juda katta tajribaga ega bo‘lgan. Bu hududda sholidan olinadigan guruchdan turli milliy taomlar tayyorlanar edi. Farg‘ona vodiysida sholi ekish keng yo‘lga qo‘yilganligi sababli, bu yerda guruchning narxi boshqa hududlarga nisbatan arzon bo‘lgan. Asosan, sholining “oq”, “qizil”, “arpa sholi” kabi navlari ekilgan. 1909-yilda Farg‘ona viloyatida sholi maydonlari 68 ming desyatinani tashkil etdi. O‘lkaning boshqa viloyatlarda esa, sholi ekiladigan yer maydonlari Sirdaryo viloyatida 65 ming desyatina, Samarqand viloyatida 50 ming desyatina bo‘lgan[5, 30]. Ko‘rinib turibdiki, sholi ekin maydonlari bo‘yicha ham Farg‘ona O‘rta Osiyoda oldingi o‘rinni egallar edi.

Farg‘ona viloyatining Isfaradaryo vodiysi – Konibodom, qisman Beshariq, Yaypan, Qo‘qon shahrini, Kumushqo‘rg‘on vodiysi esa Asht, Pangal, Ashobin, Maygir va Jumashuy, Andijon, Namangan shaharlari va uning atrofidagi qishloqlarni, O‘sh va Aravon Andijon va Asakani guruch bilan ta’minlagan. O‘zgan, Suzoq guruchlari nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki butun O‘rta Osiyo hududlarida mashhur bo‘lgan[3, 134]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona viloyatining ayrim hududlarida sholi yetishtirish mahalliy aholining asosiy ixtisoslashgan mashg‘uloti bo‘lib, bu faqat ichki bozorni sholi bilan ta’minlab qolmay, shu bilan birga tashqi bozorga ham yetkazib bera olganligini ta’kidlash lozim.

Shu bilan birga, Farg‘ona viloyatida sholi yetishtirishda ko‘p suv sarflanganligi bois, bu hududlarda suv muammosi doimiy bo‘lib turgan. Rus ma’muriyati o‘lkada yangi tashkil etilgan vaqtda tashkiliy ishlar bilan band bo‘lib, irrigatsiya ishlariga zaruriy e’tibor bermaganligi natijasida, viloyatning ko‘plab hududlarida suv masalasida nizoli vaziyatlar yuzaga keldi. Buni Andijon uyezdining Oltinko‘l volostiga qarashli “Xasan-Xusan” va “Qoraqalpoq” qishloqlari yerlariga suvni ilgari “Yo‘lchi” arig‘dan olib, sholi esa, mutlaqo ekilmas edi. Keyinchalik, bu qishloqlar aholisi suvni “Ulug‘nor” arig‘idan ola boshlab, qishloqning 1100 tanob yer maydoniga sholi eka boshlaganligi, bu davrda “Tojik” arig‘i ham suv olishini Ulug‘norga ko‘chirilganligi va unga qarashli 1000 tanobdan ortiq yer maydoni sholi ekiladigan yerga aylantirilganini, shuningdek, yana yangidan 13 ta ariq Ulug‘nordan suv oladigan bo‘lib, 4610 tanob yer maydoni sholi yetishtirishga aylantirilganligi, natijada, Shahrixonning pastidagi qishloqlarga suv yetmay qolganligi va 1877-yildan boshlab bu qishloqlar aholisidan viloyat harbiy gubernatoriga juda ko‘p shikoyatlar tusha boshlagan[6, 79]. Mustamlaka rus ma’muriyati vakili tomonidan bu muammoni hal etishda, o‘lka, irrigatsiyasi haqida 1878-yili qabul qilingan vaqtincha qo‘llanma (instruksiya)ga binoan, Farg‘ona viloyati irrigatsiya mudirligi lavozimi tashkil qilinib, unga injener N.Jilin tayinlanadi[6, 82]. N.Jilin faoliyatida bu muammoni hal etishda viloyatdagi irrigatsiya inshootlarini ta’mirlash hamda sholi yetishtirishni qattiq nazoratga olish lozimligini ta’kidlab o‘tadi[6, 83]. Shu bilan imperiya hukumati o‘lkada sholi yetishtirishni kamaytirib, asosiy e’tiborni paxta yetishtirishga qaratilgan siyosatni olib borgan.

O‘lkaning Sirdaryo viloyatining aholisi ham dehqonchilik va ziroatchilikda katta sug‘oriladigan yerlari Chirchiq, Angren, Aris, Bodom, Bo‘rijar, Chayon va Talas daryolari bo‘ylarida bo‘lgan. Shuningdek, mahalliy aholi o‘lkadagi mavjud sug‘oriladigan yerlardan unumli foydalangan holda, bug‘doy, paxta, arpa, jo‘xori va dukkakli ekinlar bilan birga sholi yetishtirishda ham tajribali bo‘lgan. XX asr boshida Sirdaryo viloyati hududidagi jami sug‘oriladigan yer maydoni 526000 desyatina, ya’ni butun o‘lkadagi sug‘oriladigan yerlarning 28,1 foizni tashkil etgan[15, 87-105]. Shundan, viloyat bo‘yicha jami 84,282 desyatina yer maydonida sholi yetishtirilgan[15, 196]. Sholi yetishtirishda mahalliy mirishkorlar o‘ziga xos an’analarini yarata olgan.

O‘rganilayotgan davrda Sirdaryo viloyatida sholi yetishtirishda Toshkent uyezdi asosiy o‘rin egallagan[14, 49]. Undan so‘ng viloyatning tarkibiga kiruvchi Amudaryo bo‘limi, Chimkent va Perovskiy uyezdlari turgan. O‘lkada faoliyat olib borgan “Yer solig‘i” komissiyasi 1902-yilgi ma’lumotga ko‘ra, Toshkent uyezdida jami 814,634 desyatina yer maydonidan 71,175 desyatina ya’ni 8,7 foiz yer maydonida sholi yetishtirilgan. Budan esa, uyezddagi 252,205 desyatina sug‘orma dehqonchilik qilinadigan yer maydonining 25,2 foizni sholi ekiladigan maydonlar tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin[15, 195]. Viloyatning Amudaryo bo‘limida jami 69,655 desyatina sun’iy sug‘oriladigan yer maydoni bo‘lib, shundan 4,860 desyatina yer maydoniga sholi ekilgan. Bu bo‘limning 6,9 foiz yer maydonida sholi yetishtirilgan. Chimkent uyezdida jami 253,000 desyatina

sun'iy sug'oriladigan yer maydoni bo'lib, shundan 7,370 desyatina yer maydoniga sholi ekilgan. Bu uyezdning 2,9 foiz yer maydonini tashkil etgan. Perovskiy uyezdida esa, jami 52,200 desyatina sun'iy sug'oriladigan yer maydoni bo'lib, shundan 877 desyatina yer maydoniga sholi ekilgan. Ushbu uyezdning 1,6 foiz sug'oriladigan yer maydoniga to'g'ri kelgan[15, 196].

Rus olimi N.N.Aleksandrov ma'lumotga ko'ra, XX asr boshida Sirdaryo viloyatida 3006 ta, uzunligi 17151 verstni tashkil etuvchi katta-kichik ariqlar taxminan 600 000 desyatina yer maydonlarini suv bilan ta'minlagan. Shundan 70000 desyatinaga yaqin yer maydoniga sholi ekiladigan[1, 13]. Shuningdek, muallif, viloyatdagi sholi ekiladigan yer maydonlari haqida ham to'xtalib, unga ko'ra: Toshkent uyezdida 68138 desyatina atrofida, Chimkeni (Chernyayev) uyezdida 3687 desyatina, Perovskiy uyezdida 633 desyatina, Kazalinskiy uyezdida 21 desyatina va Amudaryoda esa, 3867 desyatinani tashkil etgan deb ma'lumot berib o'tgan[1, 14].

Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida imperiya hukumati tomonidan o'lkada yer-suv munosabatlarini mustamlakachilik tarzida o'zgartilishi, soliqlar hajmini va turlarining ko'paytirilishi bilan birga paxta yetishtirishni oshirishga qaratilgan siyosat ham nafaqat dehqonlarga, balki butun mahalliy aholi uchun o'ta salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Imperiya hukumatining siyosiy doiralari va kapitalistlari Turkistonda paxtachiligi uchun qulay yerlarga suv keltirish bo'yicha zarur xarajatlardan qochib, mahalliy aholi yerlarini musodara qilish bilan birga, o'lkada an'anaviy bo'lib qolgan oziq-ovqat ekinlaridan sholi, oq jo'xori, mosh va boshqa ekinlar ekiladigan maydonini qisqartirib, ularning o'rniga paxta ekishni joriy etgan[8, 60-61]. O'lkaning birgina, Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligida sholi yetishtirishning qisqarishi viloyatning jami ekin maydonlaridagi foiz hisobida quyidagi: 1885-yil 16 foiz, 1905-yilda 8 foiz, 1915-yilga kelib 7 foizni tashkil etgan[9, 22]. Shu bilan birga imperiya hukumati 1885-yildan –1900-yilgacha Turkistondan 6689702 pud sholi olib ketilgan[2, 6-7].

Shuningdek, professor N.U.Musayevning fikricha, XX asr boshiga kelib, o'lkada paxtaga nisbatan sholi ham serdaromad sohaga aylanib qoldi. Shuning uchun ayrim dehqonlar ko'proq suv serob bo'lgan yerlarda sholi ekishga harakat qilishgan. Masalan, 1901-yili Farg'ona viloyati – 54,8 ming, Samarqand viloyati – 43,5 ming (barcha ekin maydonlarining 12 foiz), Sirdaryo viloyatida – 84,2 ming desyatina yer maydoniga sholi ekilgan[9, 24]. Biroq sholi yetishtirish ko'p suv talab qilganligi uchun Turkiston o'lkasida uni ekish imkoniyati cheklangan. O'lka viloyatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari paxtaga ixtisoslashish jarayonining kuchayishi ularning Rossiya imperiyasiga qaramligini oshirib bordi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida olib borgan agrar siyosatini o'lkadagi hukmronligining dastlab davrlaridan boshlab, asosiy e'tiborni paxta yetishtirishga qaratgan bo'lsa-da, lekin o'lka aholisi asosiy ozuqasi qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan bug'doy va sholi kabi mahsulotlar bo'lib qolaverdi. Turkiston o'lkasi mahalliy aholisi sholi yetishtirishda o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, o'lkaning suvga mo'l bo'lgan hududlarida yaxshi hosil olingan. O'lkaning Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarining ba'zi hududlari sholi yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. Bu hududlarda olingan hosildan ichki bozorni ta'minlab, ayrim vaqtlarda tashqi bozorga ham yetkazib berilgan. Mustamlakachi imperiya hukumati o'lkada paxta yetishtirishni tobora kuchaytirishini birinchi darajali maqsadi qilib olganligi sababli sholi yetishtirishdan ko'p manfaatdor bo'lmagan hamda bu sohani rivojlantirish uchun irrigatsiya inshootlarini ta'mirlash, yangilarini qurish va ularga mablag' ajratish kabi muammolarni hal etishdan ko'ra, o'lkada sholi yetishtirishni taqiqlab qo'yish osonroq deb topgan. O'lkada sholi yetishtiriladigan ekin maydonlarining qisqarishi oqibatida, uning narxi oshishi va mahsulot yetishmovchiligi ko'paygan. Bu esa, o'lka mahalliy aholisini kundalik turmush tarzida va ijtimoiy hayotining og'irlashishiga olib kelgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Александров Н.Н. Земледелие в Сирдаринской области. – Ташкент, Часть 1-2, 1916. – С. 13-14.
2. Ахмаджанова З.К. Экономические, политические и военно-стратегические последствия постройки первых железных дорог в Средней Азии (80-90 г.г. XIX в.). Уч. записки ТГПИ, Вып. 23, Ч. 3. – Ташкент, 1960. – С. 6-7;
3. Батраков В.С. Характерные черты сельского хозяйства Ферганской долины в период Кокандского ханства // Научные труды САГУ. Нов. серия. Вып 62. Кн. 8. История. – Ташкент, 1955. – С. 134.

4. Вирский М. Хлопководство и хлопковая промышленность в Самаркандской области // Справочная книжка Самаркандской области (Под ред. секретаря комитета М. Вирского). Вып. 5. – Самарканд: Изд. Самаркандскаго областного Статистическаго комитета. Типография К.М. Селорова, 1897. – С. 87-88.

5. Jabborov M.R., Arslonzoda R.A. Farg‘ona Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida (“Turkestanskiy sbornik” materiallari asosida). – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 29-30 b.

6. Jalilov S. Farg‘ona vodiysining sug‘orish tarixidan (XIX–XX asr boshlarida). – Toshkent: Fan, 1977. – 79-83 b.

7. Isoqov Z. Farag‘ona vodiysi an’anaviy dehqonchilik madaniyati. – Toshkent: Yangi nashr, 2011. – 12 б.

8. Qurbonova N. Chorizmning Turkistondagi agrar siyosati va unga qarshi kurash (Farg‘ona vodiysi misolida). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 60-61 b.

9. Musayev N.U. XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 22-65 b

10. Позняков П. Культура риса и оя экономическое значенія в Самаркандской области / Справочная книжка Самаркандской области. Вып. 9. Под ред. секретаря статистическаго комитета М. Вирского. – Самарканд: Изд. Самаркандскаго областнаго статистическаго комитета. Типо-литографія Г.И. Демурова, 1907. – С. 4-5.

11. Современный кишлак Средней Азии. Вып. VI. – Ташкент, 1927. – С. 130.

12. Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Кириш, инглиз тилидан қисқартирилагн таржима, изоҳлар ва қўрсаткичлар муаллифи З.А.Саидбобоев. – Toshkent: O‘zbekiston, НМИУ, 2019. – 230 б.; Schuyler E. Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Kokand, Bukhara and Kuldja, – London, 1876. Vol. I. – Pp. 284.

13. Справочная книжка Самаркандской области. 1898 годы. – Самарканд: Типография К.М. Селорова, 1899.

14. O‘zbekiston SSR tarixi / I.M.Mo‘minov tahriri ostida. – Toshkent: Fan, 1971. T. II. – 49 b.

15. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – СПб.: Типогр. В.Е. Киршбауна, 1908. – С. 87- 197.